

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(2021 yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobilij o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z or-nida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bos-qichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-dekabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


35 022 - Ro'yxatdan o'tgan	
2 392 kichik korxonalar	32 630 - mikrofirmalar
33 114 - Faoliyat ko'rsatayotgan	
2 342 - kichik korxonalar	30 772 - mikrofirmalar
8 658 - Yangi tashkil etilgan(2020 yilda)	
401 - kichik korxonalar	8 257 - mikrofirmalar

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 7 145 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 579 taga yoki 56,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 6 756 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 445 taga yoki 56,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 677 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 534 taga yoki 24,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 20 614 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 362 taga yoki 26,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 679 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 262 taga yoki 27,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 789 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 210 taga yoki 4,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

8




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 597 tani tashkil etib, ulardan 580 tasi yoki 97,1 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 72 taga yoki 14,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 80 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

9



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


	71-Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
	295-Sanoat
	36-Qurilish
	90-Savdo
	16-Tashish va saqlash
	18-Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
	4-Axborot va aloqa
	6-Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
	44-Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

10

■ O'sish sur'ati ■ 2021- y. ■ 2020- y.



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

11


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	580	406	174
Samarqand sh	247	155	92
Kattaqo'rg'on sh	18	15	3
tumanlar:			
Oqdaryo	31	28	3
Bulung'ur	26	12	14
Jomboy	39	33	6
Ishtixon	14	7	7
Kattaqo'rg'on	11	10	1
Qo'shrabot	20	10	10
Narpay	5	4	1
Payariq	16	10	6
Pastdarg'om	28	21	7
Paxtachi	9	4	5
Samarqand	40	31	9
Nurobod	12	12	
Urgut	50	44	6
Toyloq	14	10	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 247 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 42,6 %), Urgut 50 ta (8,6 %), Samarqand 40 ta (6,9 %), eng kamlari esa Narpay 5 ta (0,9 %), Paxtachi 9 ta (1,6 %), hamda Kattaqo'rg'on 11 ta (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

12




2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,6 %), Urgut (8,7 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,4 %), Payariq (5,4 %), Ishtixon (5,3 %), Kattaqo'rg'on (4,9 %), Toyloq (4,2 %), Bulung'ur va Oqdaryo (3,9 %), Jomboy (3,8 %) Kattaqo'rg'on shahri (3,4 %), Narpay (3,3 %), Nurobod (2,9 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (26,6 %), Pastdarg'om va Urgut (8,0 %), Samarqand (7,9 %), Ishtixon (5,9 %), Kattaqo'rg'on (5,6 %), Payariq (4,8 %), Toyloq (4,6 %), Bulung'ur (4,4 %), Jomboy (4,3 %), Oqdaryo va Kattaqo'rg'on shahri (3,8 %), Nurobod (3,3 %), Narpay (3,2 %), Paxtachi (2,9 %) va Qo'shrabot (2,8 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (36,2 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (7,7 %), Pastdarg'om (7,1 %), Kattaqo'rg'on (5,2 %), Payariq (4,7 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,5 %), Oqdaryo va Jomboy (3,7 %), Bulung'ur va Ishtixon (3,5 %), Nurobod (3,4 %), Toyloq (3,0 %), Qo'shrabot (2,2 %), Paxtachi (2,1 %) va Narpay (1,4 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

14




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)


15



2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (23,9 %), Samarqand tumani (13,3 %), Pastdarg'om (10,6 %), Payariq (8,3 %), Urgut (8,0 %), Kattaqo'rg'on (5,9 %), Toyloq (5,8 %), Jomboy (5,3 %), Narpay (4,2 %), Oqdaryo (3,6 %), Ishtixon (3,5 %), Bulung'ur (3,1 %), Kattaqo'rg'on shahar (2,1 %), Paxtachi (1,1 %), Qo'shrabot (0,8 %) va Nurobod (0,5 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a menu titled "RASMIYIY STATISTIKA" with various links like "El'on qilish taqvim", "Metama'lumotlar", etc. The central part shows a search form for "Klassifikator" (Classification code) with fields for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code) and "Rasmidagi kodni kiritning" (Enter code from document). A dropdown menu is open over the search form, listing items such as "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdirm ettiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Ahollini ro'yxtatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo`limi**
Tel.: 66 235-14-42